

**Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilarga ega shaxslar rasmiylashtiriladi:**

- bakalavr va magistr diplomlari (faqat yuridik soha bo'yicha) yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi (ixtisoslik bo'yicha) diplomga ega bo'lganlar;
- belgilangan ilmiy maqolalariga ega bo'lganlar, shu jumladan, ilmiy jurnalda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqotining asosini tashkil etishi mumkin bo'lgan tegishli ilmiy sohalardagi ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezis.

**Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka yuridik fanlari nomzodi yoki yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan diplomga ega bo'lgan, belgilangan tartibda talablarga muvofiq ilmiy daraja olganidan so'ng salmoqli ilmiy yutuqlarga erishgan shaxslar rasmiylashtiriladi.**

**Mustaqil izlanuvchilikka talabgor quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan Akademiyaga Yagona elektron tizim orqali murojaat qiladi:**

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;
- falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun bakalavr va magistrlik yoxud oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturi bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi;
- fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun yuridik fanlar nomzodi yoki yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) diplomi yoki xorijda olingan unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar diplomi nusxasi;
- ish joyidan tavsifnoma.